

UDK: 32.321

**ABU RAYHON BERUNIYNING FUQAROLIK JAMIYATI  
TO‘G‘RISIDAGI ILMIY QARASHLARI**

**Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna, UrDU o‘qituvchisi, QDU  
“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi mustaqil  
tadqiqotchisi**

**THE VIEWS OF THE THINKERS OF THE TIMURIAN PERIOD ON  
THE IDEALS OF CIVIL SOCIETY**

**Kurbanbaeva Munavvara Kozibaevna, teacher of UrSU, independent  
researcher of the department “National idea, foundations of spirituality and  
legal education” of QSU**

**НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ О  
ГРАЖДАНСКОМ ОБЩЕСТВЕ**

**Курбанбаева Мунаввара Козибаевна, преподаватель УрГУ,  
независимый научный исследователь кафедры “Национальная идея,  
основы духовности и правового воспитания” КГУ**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning adolatli jamiyat, adolatli hukmdor qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi qarashlari tahlil qilingan. Olimning davlat boshqaruviga oid fikrlari hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganligi ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy-siyosiy, qarashlar, hukmdor, adolatli shoh, xalq, adolat, haqiqat, adolatsizlik, davlat, siyosat.

**Abstract:** This article analyzes the views of the great thinker Abu Rayhan Beruni on how a just society and a just ruler should be. It has been revealed that the scientist's views on state management have not lost their relevance even today.

**Key words:** socio-political, views, ruler, just king, people, justice, truth, injustice, state, politics.

**Аннотация:** В данной статье анализируются взгляды великого мыслителя Абу Райхана Беруни на то, каким должно быть справедливое общество и справедливый правитель. Выявлено, что взгляды ученого на государственное управление не потеряли своей актуальности и в наши дни.

**Ключевые слова:** общественно-политические, взгляды, правитель, справедливый царь, народ, справедливость, истина, несправедливость, государство, политика.

**KIRISH.** Abu Rayhon ibn Ahmad al-Beruniy nafaqat o‘z zamonasining, balki barcha zamonlarning buyuk qomusiy olimi, noyob tafakkur va aql sohibi, jahoniy miqyosdagi gigant dahodir. Mazkur so‘zimizga dalil sifatida Beruniy 990-yil martida 17 yoshlik paytidayoq kecha-kunduz teng kelishining har ikkala paytida quyosh balandligini o‘lchashga muvaffaq bo‘lgani, 994-yili Beruniy ekliptika tengligining ekvatorga og‘ish burchagini g‘oyatda aniqlik bilan o‘lchab topgani, 995-yilda Yer sharining tuzilish shaklini aniq ko‘rsatuvchi globus yaratgani, vatandan olisda, musofirchilik qiyinchiliklariga qaramasdan 1000-yili 27 yoshida “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kabi yirik fundamental asarni yozib tugatishi, umuman fanning deyarli barcha sohalari bo‘yicha kishi aqli bovar qilishi mushkul darajada aniqlik va xolislik bilan 150dan ortiq asarlar yaratganini aytish kifoyadir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Shuningdek, Beruniyga zamondosh va undan keyingi zamonlar olimlarining Beruniy haqida aytgan ko‘plab fikrlarini keltirishimiz mumkin. Masalan, Beruniy hayotligida G‘aznaviyalar davlati devonxonasida devonbegi yordamchisi vazifasida ishlagan mashhur tarixshunos Abulfazl Bayhaqiy “Tarixi Bayhaqiy” asarining Xorazm to‘g‘risidagi bobi muqaddimasida “Mazkur... tarix asarini yozishga kirishar ekanman, o‘z ko‘rganlarim, yoxud ishonchli odamlardan eshitganlarimni bitishga ahd qildim. Bundan avval men ustoz Abu Rayhon qalamiga mansub bir kitobni ko‘rgan edim. Ul zot suxandonlikda va hodisalar mohiyatini anglashda, geografiya va falsafada benazir kishi edi. Zamonasida unga teng keladigani yo‘q edi; u biror narsani chuqur mulohaza qilmay yozmas edi. Mazkur kitobdan men butun-butun joylarini ko‘chirdim. Bu tafsilotlarni men mazkur “Tarixni” yozishda qanchalik ehtiyotlik bilan ish ko‘rganimni oydinlashtirish uchun yozmoqdaman. Chunki, men

bilgan so‘z san’atkorlari doimo mendan oldin tilga olinishi kerak. Lekin bunday odamlar juda kam qoldi” [1], deb yozgan. Tarixshunos Yoqutning yozishicha, “Beruniyning “al-Qonun al-Mas’udiy” kitobi matematika va astronomiya bo‘yicha ungacha yozilgan hamma kitoblar izini o‘chirib yuborgan” [2]. Yoki, akademik I.Yu.Krachkovskiyning “Beruniyning qiziqqan sohalarini sanab chiqishdan ko‘ra, uning qiziqmagan sohalarini sanab chiqish osonroqdir”, degan ta’rifi buyuk bobokalonimiz ijodi va faoliyatiga yanada aniqroq baho bera oladi.

**MUHOKAMA.** Beruniyning 150dan ortiq asarlaridan uchdan ikkitasi bizgacha yetib kelmagan, yoki hali topilmagan. Ijtimoiy fanlarga oid asarlaridan faqatgina “Hindiston” asarigina saqlanib qolgan. Asosan, tabiiy va aniq fanlarga oid asarlari bizning zamonamizgacha yetib kelgan. Mana shu bizda mavjud bo‘lgan asarlarning o‘ziyoq Beruniy dahosining naqadar yuksak ekanligini ko‘rsatish bilan birga, topilmagan asarlarida qanday buyuk kashfiyotlar, tezislar va ilmiy qarashlar bor ekan, degan taskinsiz savol tug‘diradi. Ayniqsa, ijtimoiy fanlarga doir asarlarining deyarli saqlanmaganligi, ular yo‘q qilingan bo‘lishi ham mumkin, degan fikrni paydo qiladi. Chunki, Beruniy barcha voqea-hodisalarga obyektiv, haqqoniy yondashuvchi progressiv olim bo‘lgani bois, uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari albatta o‘z zamonasiga nisbatan bir necha yuz yillar ilgarilab ketgan bo‘lishi, uning nisbatan bo‘lsa-da hurfikrligi o‘sha zamon hukmron doiralari va mutaassib din peshvolariga yoqmagan bo‘lishi tabiiydir. Beruniy o‘z zamonasi haqida shunday deydi: “Hukmronning ilm ahlini ko‘proq maqtab, ulardan xursand bo‘lishi ham, ilmlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Demak, odamlarning qalbi buni sevish va buning teskarisiga esa nafrat bildirish uchun yaratilgandir. Lekin zamonimiz aytib o‘tilganday zamon emas, balki uning teskarisichadir. Shunday zamon va sharoitda yashash majburiy bo‘lgandan keyin, qachon ilm yuzaga chiqadi va yuzaga chiqqani qachon rivoj topadi? Bizning zamonimizda mavjud bo‘lgan barcha ilm, o‘sha tasvirlangan davrlardagina bo‘lgan qadimgi zamon bilimlarining qoldiqlari va oqovalaridir” [3].

Abu Rayhon Beruniy Xorazm poytaxti Kotda tug‘ilib, ustozi, zamonasining mashhur matematik olimi Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq xonadoni tarbiyasida kamol topdi. Abu Nasr Mansur xorazmshoh Abu Abdulla Muhammad ibn Ahmadning amakivachchasi edi. Yosh o‘smirlik davridanoq mamlakat xalq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy kashfiyotlar yaratgan hamda podshoh oilasiga yaqin bo‘lgan Beruniy Kotning siyosiy hayotida katta mavqega ega





bo‘lgan. Oxirgi Afrig‘iy Xorazmshoh Gurganj miri Ma‘mun tomonidan o‘ldirilganda Beruniy 22 yoshda edi. Tabiiyki, yangi hukmdor va uning amaldorlar doirasiga Beruniy aslo yoqmas edi, hatto Xorazmda qolish uning hayoti uchun xavfli bo‘lib qolgan edi. “Keyin Xorazmning oliy tabaqalari orasida kurash va fisqu fasod kuchaydi. Bu (meni) ishlarimni tashlab yashirinishga majbur etdi. Men vatanni tark etib, bir necha yil qo‘nim bilmay taqdir bevafoolidan nafratlanib yurdim” [4], -deb yozadi buyuk olim. U 995-yilda Jurjonga, Qobus ibn Vushmagir huzuriga ketishga majbur bo‘ladi. Aytish mumkinki, shu vaqtdan boshlab buyuk olimning kindik qoni tomgan ona vatani Kot shahridan ayriliqdagi jahongashta-musofirlik hayoti boshlanadi.

Qayd etish lozimki, Beruniydek taniqli shaxs o‘zi har qancha xohlmasin, o‘z davrining siyosiy jarayonlaridan chetga chiqib qolishi, hukmdorlar bunday salmoqli vaznga ega bo‘lgan shaxsga e‘tibor qaratmasligi mumkin emasdi. O‘ta murakkab ijtimoiy-siyosiy davrda yashab o‘tgan Beruniy o‘z hayoti davomida ko‘plab hukmdorlar bilan bevosita aloqada bo‘lgan, nafaqat muloqot qilgan, balki ularning ayrimlariga safdosh-yelkadosh bo‘lgan bo‘lsa, ayrimlariga vaziyat taqozosidan kelib chiqib xizmat qilgan, ayrimlarining iltifotiga, ba‘zilarining nafrati va g‘azabiga duchor bo‘lgan. Lekin har qanday vaziyatda buyuk olim o‘z insoniy sha‘ni va qadr-qimmatini saqlab qola olgan.

U xorazmshoh Abu Abdulla Muhammad ibn Ahmad, Jurjon hukmdori Qobus ibn Vushmagir, Ray hokimi Faxruddavla, Faxruddavla vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Majuddavla, xorazmshohlar Ali ibn Ma‘mun, Abulabbos Ma‘mun ibn Ma‘mun, mahmud G‘aznaviy, uning o‘g‘li Mas‘ud kabi hukmdorlar saroyida o‘zining o‘rniga ega siyosatchi va olim sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Tabiiyki, buyuk olim Abu rayhon Beruniyning davlat boshqaruvi, xalqaro munosabatlar, adolatli jamiyat haqida o‘z qarashlari bo‘lgan va hukmdorlarga davlat ishlarini olib borishda gumanistik, xalqparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan fikrlarni bergan. Buni uning asarlaridagi davlat va jamiyat, hukmdor va xalqqa berilgan ta‘riflar, ular o‘rtasidagi munosabatlarga bildirilgan fikrlardan bilib olsak bo‘ladi. Ayniqsa, Abu Abdulla Muhammad ibn Ahmad, Qobus ibn Vushmagir, Ma‘mun ibn Ma‘mun, Mas‘ud saroylarida Beruniy muhim mavqega ega bo‘lib, davlat ishlarida ushbu hukmdorlarga uning ta‘siri kuchli bo‘lgan.

Beruniy davlatning gullab-yashnashi, xalq farovonligi, adolatning qaror topishida hukmdorlarning o‘rni katta ekanligini ta‘kidlaydi: “Oliy tangrining nufuzli



taqdiri bilan olamda biror zamoni xalq inonadigan adolatsiz yo‘lboshchisiz qo‘ymasligi – xaloyiq manfaatlariga mos latif tadbirlaridan va barcha xalqqa bergan ulug‘ ne‘matlaridandir. (Tangri) uni o‘z xalqiga rahbar qilib qo‘yadi, ular og‘ir ahvol va baxtsizliklarga, qattiqchilik va kulfatlarga (duch kelganlarida) undan panoh tilaydilar; biror ish shubhali bo‘lganda, uning hukmiga murojaat qiladilar. Uning ijtihodi bilan olamda tartib barpo bo‘ladi. Doimo shunday yo‘lboshchining bo‘lib turishini (xudo) odamlarga farz etgan, musulmonlarni unga bo‘ysunishga buyurib, buni haq va to‘g‘ri so‘z bilan, o‘ziga va payg‘ambariga bo‘ysunish bilan bir qatorga qo‘ygan va oxiratda yaxshi mukofotga erishishga vosita qilgan” [5]. Beruniy bu so‘zlari bilan davlat boshlig‘i adolatli, o‘z xalqiga g‘amxo‘r, jamiyatda tinchlik va tartibni barqaror etuvchi bo‘lsagina halq ishonchiga sazovor haqiqiy yo‘lboshchi bo‘la olishini ta‘kidlaydi. Va podshoh quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi kerak deb hisoblaydi: “Oliy tangriga shukurlar bo‘lsin, u, ulug‘ xojamiz janobi amir, xudo yordamiga muyassar, ne‘matlar egasi Shams al-Maoliyni xalqqa adolatli, tangrining dini va haqiga yordamchi, musulmonlar haramlarini qo‘riqlovchi, ular mulklarini talon-tarojlardan asrovchi yo‘lboshchi qilib, qudrat va oliy martabasini yanada yuqori ko‘tarsin... Pok tangri o‘z payg‘ambari va payg‘omini yetkazuvchisini “Albatta sen eng yaxshi xulq egasisan!” deb tavsif qilganidek, (Shams al-Maoliyga ham) yaxshi xulq berib, uni mamnun etgan. Ulug‘ va oliy tangri uning pok vujudidagi yaxshilik nishonalariga go‘zal axloqlarini, ibolik ruhiga barcha yoqimli xislatlarni qo‘shib, uni qanday sifatlarga egasi qilgan? U xislatlar: taqvodorlik, o‘zni saqlash, dindorlik, odillik, insof, kamtarlik, latofat, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, muloyimlik, siyosat va boshqarish ishlarida bilimdonlik, tadbirkorlik, to‘g‘ri taxmin qila bilish va bulardan boshqa aqlga sig‘maydigan, kishi bayon etib tugatolmaydigan yaxshi sifatlardan iboratdir” [6].

**NATIJARLAR.** Ulug‘ mutafakkirning Jurjon hukmdori Qobus ibn Vushmagirga bergan ushbu ta‘rifi orqali podshohlarda bo‘lishi lozim bo‘lgan fazilatlar va xislatlarni sanab o‘tadi va ushbu xislatlar ichida podshohning adolatli, haqiqatni qaror toptiruvchi, o‘z fuqarolari mulkini qo‘riqlovchi, saxovatli, insofli, kamtar bo‘lishi kerakligini takror-takror uqtiradi. Ushbu g‘oyalar aynan bugun yangi O‘zbekistonni barpo qilishdagi asosiy konsepsiyalardan bo‘lgan “Inson qadri va manfaati har narsadan ulug‘!” shioriga nihoyatda hamohang ekanligi bilan ham Beruniy asarlari hamisha zamonaviy hamda o‘z dolzarbligini zamonlar osha yo‘qotmasligini ko‘rsatib turibdi. Siyosat va boshqarish ishlarida bilimdonlik,



tadbirkorlik, to‘g‘ri taxmin qila bilish orqali esa, podshoh mamlakat ichkarisida va tashqi munosabatlarda haqiqiy strateg va diplomat bo‘lishi kerakligini uqtiradi. Hukmdorning ushbu fazilatlar sohibi bo‘lishi esa, fuqarolik jamiyatining qaror topishida muhim omildir.

Shu bilan birga, har qancha qiyin bo‘lmasin, adolatsiz shohlarga qo‘rqmasdan rost fikrni aytish joizligini ham ta‘kidlaydi. Bu yo‘lda shijoatli bo‘lish, hattoki o‘limga tik boqish lozimligini uqtiradi: “Iso payg‘ambar – unga tangrining salomi bo‘lsin – injilda mana shu mazmunda so‘z aytgan: “Podshohlar oldida rost gapni gapirishda ularning savlatlaridan qo‘rqmang, ular gavgangizga hukmronlik qila oladilar, ammo nafsingizga tegolmaydilar”. Iso payg‘ambarning bu so‘zi odamlarning chinakam shijoatli bo‘lishga buyurishdan iboratdir. Ko‘pchilik tomondan botirlik deb tanilgan xulq, ya‘ni urush maydonlarida bahodirlik va turli halokatlarga uchrashni pisand qilmaslik o‘sha shijoatning bir turidir. Ammo uning hamma turlari ichida eng yuqori darajali bir xili – to‘g‘ri so‘zni so‘zlash yoki to‘g‘ri ishni qilishda o‘limni pisand qilmaslikdir. Hammaning tabiatida, adolat bevosita sevikli va hamma uning yaxshiligiga qiziqadigan bo‘lgani kabi, rostgo‘ylik ham shunday; lekin rostgo‘ylikning shirinligini totmagan yoki shirinligini bilsa ham totishni istamaydigan kishi uni sevmaydi. ... Demak, yolg‘onchilik kishini adolatdan yuz o‘girtiradi; zulm, yolg‘on guvohlik, omonatga xiyonat qilish, boshqalar mulklarini hiyla bilan bosib olish, o‘g‘rilik, dunyo va xalqning buzilishiga sabab bo‘ladigan boshqa yomon xulqlarni kishiga yaxshi qilib ko‘rsatadi” [7].

Ushbu qarashlariga buyuk ajdodimizning o‘zi qat‘iy amal qilib yashagan. Mahmud G‘aznaviy bilan Beruniy munosabatlarida ayniqsa bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilaridan biri ham xalqning hukumatga o‘z xohish-irodasini namoyon etish orqali boshqaruv ishlarida ishtirok qilishidir.

Rostgo‘ylik va adolat bilan ish ko‘rish, xalqning joni va molini himoya qilish, elga g‘amxo‘r bo‘lishni o‘ziga odat qilgan hukmdorning davlati mustahkam, xalqi farovon, yurti osoyishta bo‘ladi, podshohlarning ilmga rag‘bat ko‘rsatishi esa, davlatning gullab-yashnashiga olib keladi, degan g‘oya Beruniyning deyarli barcha asarlarida o‘z aksini topgan.

**XULOSA.** Buyuk mutafakkir odil podshoh boshqaruvidagi jamiyat xalq orzusidagi jamiyat bo‘lishini aytadi, bu esa fuqarolik jamiyatidir.

Adolatli, o‘z xalqiga g‘amxo‘r podshohning xalq bilan birgalikda tuzgan adolatli jamiyati esa, o‘zidan keyingi zamonlarda ham, abadiy yashab qolishini





ta'kidlaydi: “Tabiati jihatidan boshqarish va siyosat ishiga qiziquvchi, boshliq bo‘lishga fazilati va kuchi bilan haqli, fikr va maqsadida sabotli, davlatni o‘zidan keyingilarga qoldirib, ularning o‘z ota–bobolariga qarshi bo‘lmashliklarini maqsad qilib olgan kishi tomonidan berilgan har bir buyruq, buyurilgan kishi oldida, turg‘un tog‘lar singari mahkam bo‘lib, u buyruqqa ko‘p vaqtlar va uzun zamonlar o‘tsa ham, keyingilar ham bo‘ysunadilar” [8].

Buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniyning fuqarolik jamiyati haqidagi fikr va g‘oyalari ming yil avval aytilgan bo‘lsa ham, zamon bilan hamnafas va dolzarbdir. Uning asarlarini o‘qib-o‘rganish va amaliyotda qo‘llash boshqa ko‘plab fanlar qatori siyosatshunoslik fani uchun ham g‘oyat muhimdir.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulfazl Bayhaqiy. Mas‘ud tarixi. Fors tilidan rus tiliga tarjima, kirish so‘zi va izohlar A.K.Arendsniki, II to‘ldirilgan nashri, M.:1969, 807-817-betlar.
2. “Irshod al-arib”, VI, 312-bet.
3. Beruniy, Abu Rayhon. Hindiston. Tanlangan asarlar, II jild. –T.: “Fan” nashriyoti, 1965. 125-b.
4. Abu Reyxan Biruni, t. III, Str. 138.
5. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, Tanlangan asarlar, t. I. 39- b. T.: Fan, 1968 y.
6. Beruniy, Abu Rayhon, Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, Tanlangan asarlar, t. I. 39-40 b. T.: Fan, 1968 y.
7. Beruniy, Abu Rayhon. Hindiston. Tanlangan asarlar, II jild. –T.: “Fan” nashriyoti, 1965. 26-b.
8. Beruniy, Abu Rayhon. Hindiston. Tanlangan asarlar, II jild. –T.: “Fan” nashriyoti, 1965. 88-b.

Research Science and  
Innovation House

